

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA EMPATIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA DEONTOLOGIK YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

**Omonova Muxlisa Dustnazarovna,**  
*Alfraganus universiteti dotsent v.b (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirishda deontologik yondashuvning samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning kasbiy faoliyati nafaqat chuqur bilim va metodik tayyorgarlikni, balki yuksak axloqiy mas'uliyat, kasbiy burch va insonparvar munosabatlarni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, deontologik yondashuv bo'lajak pedagog shaxsida kasbiy etika, mas'uliyat, hurmat, sabr-toqat va empatik munosabatlarni shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Maqolada empatiya tushunchasining pedagogik mohiyati, deontologik yondashuvning nazariy asoslari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda oliy ta'lim jarayonidagi amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni rivojlantirishda refleksiv topshiriqlar, axloqiy-pedagogik vaziyatlar, muloqotga asoslangan metodlar va kasbiy treninglarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari deontologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarda empatik fikrlash, insoniy munosabat va kasbiy mas'uliyatni samarali rivojlantirishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** deontologik yondashuv, empatik munosabat, bo'lajak pedagog, kasbiy etika, pedagogik deontologiya, oliy ta'lim, refleksiya, kasbiy mas'uliyat, insonparvarlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется эффективность деонтологического подхода в формировании эмпатических отношений у будущих педагогов в высших образовательных учреждениях. В современной системе образования профессиональная деятельность педагога требует не только глубоких знаний и методической подготовки, но и высокой нравственной ответственности, профессионального долга и гуманистического отношения к обучающимся. С этой точки зрения деонтологический подход рассматривается как важный фактор формирования у будущего педагога профессиональной этики, ответственности, уважения, терпимости и эмпатических отношений. В статье раскрываются педагогическая сущность понятия эмпатии, теоретические основы деонтологического подхода, их взаимосвязь, а также практические возможности реализации в условиях высшего образования. Кроме того, обосновывается значение рефлексивных заданий, морально-педагогических ситуаций, коммуникативных методов и профессиональных тренингов в развитии эмпатических отношений у будущих педагогов. Результаты исследования показывают, что образовательный процесс, организованный на основе деонтологического подхода, способствует эффективному развитию эмпатического мышления, гуманного отношения и профессиональной ответственности будущих педагогов.

**Ключевые слова:** деонтологический подход, эмпатические отношения, будущий педагог, профессиональная этика, педагогическая деонтология, высшее образование, рефлексия, профессиональная ответственность, гуманизм.

**Abstract.** This article analyzes the effectiveness of the deontological approach in forming empathic relationships among future teachers in higher education institutions. In the modern education system, a teacher's professional activity requires not only profound knowledge and methodological training, but also high moral responsibility, professional duty, and humane attitudes toward learners. From this perspective, the deontological approach is regarded as an important factor in shaping professional ethics, responsibility, respect, tolerance, and empathic relationships in future teachers. The article reveals the pedagogical essence of empathy, the theoretical foundations of the deontological approach, their interrelation, and the practical possibilities of their implementation in higher education. In addition, the importance of reflective tasks, moral-pedagogical situations, communication-based methods, and professional training in developing empathic relationships among future teachers is substantiated. The

*results of the study show that an educational process organized on the basis of a deontological approach effectively contributes to the development of empathic thinking, humane interaction, and professional responsibility in future teachers.*

**Keywords:** *deontological approach, empathic relationships, future teacher, professional ethics, pedagogical deontology, higher education, reflection, professional responsibility, humanism.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy pedagogdan nafaqat o'z fanini mukammal bilish, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning ichki kechinmalarini anglash, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olish kabi muhim kasbiy sifatlar ham talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, empatik munosabatlar pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Empatiya — bu boshqa insonning hissiy holatini anglash, unga hamdardlik bildirish va mos ravishda munosabat bildira olish qobiliyati bo'lib, pedagogik jarayonda samarali muloqotni ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Bo'lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirish ta'lim jarayonining insonparvarlik yo'nalishini kuchaytiradi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli muhitni yaratadi hamda tarbiyaviy ta'sir samaradorligini oshiradi.

Mazkur jarayonda deontologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Deontologiya kasbiy burch, axloqiy me'yorlar va mas'uliyat tushunchalarini o'z ichiga olgan holda pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak pedagoglarda deontologik yondashuv asosida empatik munosabatlarni rivojlantirish ularning kasbiy etikasini mustahkamlash, insonparvarlik qadriyatlarini qaror toptirish va pedagogik faoliyatga ongli yondashuvni shakllantirishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash jarayonida empatiya va deontologik qadriyatlar ko'pincha alohida komponentlar sifatida o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi yetarli darajada yoritilmaydi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida empatik munosabatlarni to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli empatik munosabatlarni deontologik yondashuv asosida shakllantirish masalasini kompleks tarzda o'rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirishda deontologik yondashuvning samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi.** Bo'lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirishda deontologik yondashuv masalasi pedagogika, psixologiya va kasbiy etika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogning kasbiy samaradorligi nafaqat uning bilim va metodik tayyorgarligiga, balki insoniy munosabatlari, empatik qobiliyati va axloqiy mas'uliyatiga ham bevosita bog'liqdir.

Empatiya fenomeni psixologik nuqtayi nazardan bir qator olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, Carl Rogers empatiyani shaxslararo munosabatlarning asosiy komponenti sifatida talqin qilib, pedagogik jarayonda o'qituvchining o'quvchi ichki dunyosini tushinishi ta'lim samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Uning gumanistik yondashuviga ko'ra, o'qituvchi o'quvchiga nisbatan samimiy, qabul qiluvchi va tushunuvchi munosabatda bo'lishi zarur. Bu fikrlar empatik munosabatlarning pedagogik faoliyatdagi muhim o'rnini asoslaydi.

Empatiya tushunchasining ilmiy asoslari Daniel Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasida ham keng yoritilgan. Olim empatiyani insonning ijtimoiy muvaffaqiyati va samarali muloqotining asosiy ko'nikmalaridan biri sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, pedagog faoliyatida empatik qobiliyat o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning ehtiyojlarini anglash va individual yondashuvni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik deontologiya masalalari esa V. A. Sukhomlinsky tomonidan keng yoritilgan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy burchi va axloqiy mas'uliyatini pedagogik faoliyatning asosiy mezon sifatida baholaydi. Sukhomlinskiy o'qituvchining har bir harakati insonparvarlik va mehr-muruvvat tamoyillariga asoslanishi lozimligini ta'kidlab, bu jarayonda empatik munosabatlar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Deontologik yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik jarayondagi ahamiyati I. A. Zimnyaya tomonidan ham tahlil qilingan. U pedagogik faoliyatni shaxsga yo'naltirilgan tizim sifatida ko'rib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasida axloqiy-etik fazilatlar va kommunikativ madaniyat alohida o'rin tutishini asoslaydi. Zimnyayaning fikricha, pedagogning kasbiy tayyorgarligi faqat bilim bilan emas, balki axloqiy va psixologik tayyorgarlik bilan ham belgilanadi.

Mahalliy olimlardan R. Ishmuhamedov ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida empatik munosabatlarni shakllantirishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va reflektiv topshiriqlarning ahamiyati alohida qayd etiladi.

Shuningdek, J. Jalolov tomonidan ilgari surilgan metodik qarashlarda ham pedagogning kommunikativ madaniyati, o'quvchilar bilan muloqot olib borish mahorati va individual yondashuvni ta'minlash muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Bu esa empatiya va deontologik yondashuvning metodik tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda esa Nel Noddings tomonidan ishlab chiqilgan "g'amxo'rlik etikasi" (ethics of care) konsepsiyasi empatiyaga asoslangan pedagogik munosabatlarni shakllantirishning nazariy asosi sifatida qaraladi. Unga ko'ra, ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi g'amxo'rlik va tushunishga asoslangan munosabatlar orqali samarali tashkil etiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, empatik munosabatlarni shakllantirish va deontologik yondashuvni qo'llash pedagogik faoliyatning ajralmas

tarkibiy qismlari hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu ikki tushuncha ko‘pincha alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning o‘zaro integratsiyasi yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni aynan deontologik yondashuv asosida shakllantirish masalasi chuqur ilmiy asoslashni talab etuvchi dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirishda deontologik yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida **tajriba-sinovga asoslangan kompleks metodologiya** qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Al-Fraganus universitetining pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan 97 nafar talaba jalb etildi. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilar dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra teng darajada shakllangan ikki guruhga — tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida **“Deontologik-refleksiv empatiya rivojlantirish (DREM) modeli”** taklif etildi. Mazkur metodning mohiyati talabalarda empatik munosabatlarni shakllantirishni deontologik tamoyillar asosida, ya‘ni kasbiy burch, axloqiy me‘yorlar va pedagogik mas‘uliyat bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishdan iborat. Ushbu model quyidagi o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida amalga oshirildi: kognitiv bosqichda talabalar deontologiya va empatiya tushunchalarining nazariy asoslarini o‘rgandi; affektiv bosqichda ular turli pedagogik vaziyatlar orqali hissiy anglash va hamdardlik ko‘nikmalarini rivojlantirdi; xulqiy-amaliy bosqichda esa o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar real yoki modellashtirilgan dars jarayonlarida qo‘llandi.

Tajriba guruhida DREM modeli asosida maxsus ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimi joriy etildi. Ushbu mashg‘ulotlar refleksiv topshiriqlar, axloqiy-pedagogik vaziyatlar (case-study), rolli o‘yinlar, muloqotga asoslangan treninglar va o‘zaro baholash elementlarini o‘z ichiga oldi. Har bir mashg‘ulot yakunida talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilib, empatik munosabat darajasi va kasbiy xulq-atvorini baholadi. Nazorat guruhida esa an‘anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotda empatik munosabatlarni baholash uchun maxsus mezonlar tizimi ishlab chiqildi. Ular kognitiv (boshqa insonning hissiy holatini tushunish), affektiv (hamdardlik bildirish darajasi) va xulqiy (mos pedagogik munosabatni namoyon etish) komponentlardan iborat bo‘lib, har bir komponent bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar aniqlab borildi. Ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda pedagogik kuzatish, so‘rovnomalar, test, suhbat hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologiya bo‘lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirish jarayonini deontologik yondashuv asosida tizimli ravishda tashkil etish va uning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot jarayonida bo‘lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirish darajasini aniqlash maqsadida dastlabki (pre-test) va yakuniy (post-test) diagnostika ishlari amalga oshirildi. Baholash mezonlari sifatida kognitiv (boshqa shaxsning hissiy holatini anglash), affektiv (hamdardlik bildirish

darajasi) va xulqiy (mos pedagogik munosabatni namoyon etish) komponentlar asos qilib olindi. Har bir komponent 100 ballik tizimda baholanib, umumiy natija foiz ko‘rinishida ifodalandi.

Tajriba guruhida qo‘llanilgan **“Deontologik-refleksiv empatiya rivojlantirish (DREM) modeli”** o‘zining tizimliliigi va integrativligi bilan ajralib turdi. Ushbu metodika talabalarda empatik munosabatlarni shakllantirishni uch bosqichda amalga oshirdi: birinchi bosqichda nazariy bilimlar berilib, empatiya va deontologik tamoyillar tushuntirildi; ikkinchi bosqichda talabalarga axloqiy-pedagogik vaziyatlar asosida muammoli topshiriqlar berilib, ularning hissiy va ijtimoiy reaksiyalari rivojlantirildi; uchinchi bosqichda esa rolli o‘yinlar va modellashtirilgan dars jarayonlari orqali empatik xulq-atvor amaliy jihatdan mustahkamlandi. Har bir mashg‘ulotdan so‘ng refleksiv tahlil o‘tkazilib, talabalar o‘z xatti-harakatlarini baholadi va xatolarini anglab yetdi. Bu esa empatiyaning nafaqat nazariy, balki amaliy shakllanishiga xizmat qildi.

Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish usullari qo‘llanilib, empatiya masalasi alohida mavzu sifatida qisqa yoritildi, amaliy mashg‘ulotlar va refleksiya yetarli darajada tashkil etilmadi. Natijada talabalar bilimlari shakllangan bo‘lsa-da, ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash darajasi pastroq bo‘lib qoldi.

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

*Jadval 1. Tajriba va nazorat guruhlarida empatik munosabatlar rivojlanish dinamikasi*

Guruh nomi	Talabalar soni	Boshlang‘ich ko‘rsatkich (%)	Yakuniy ko‘rsatkich (%)	O‘sish (%)
Tajriba guruhi	49	61,8	75,3	+13,5
Nazorat guruhi	48	62,5	67,4	+4,9
<b>Jami</b>	97	–	–	–

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida empatik munosabatlar darajasi 61,8 foizdan 75,3 foizga oshib, umumiy o‘sish 13,5 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa o‘sish 4,9 foiz atrofida bo‘lib, bu natija an’anaviy yondashuvning samaradorligi nisbatan past ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalarni chuqurroq tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa affektiv va xulqiy komponentlarda sezilarli o‘zgarish kuzatildi. Bu esa DREM modelida qo‘llanilgan refleksiv topshiriqlar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar orqali talabalar hissiy tajribani boshdan kechirib, uni ongli ravishda pedagogik faoliyatga tatbiq etganligi bilan izohlanadi. Diagrammatik tahlil ham tajriba guruhida o‘sishning keskin yuqoriga yo‘nalganligini, nazorat guruhida esa nisbatan sust dinamikani ko‘rsatdi. Umuman olganda, olingan natijalar deontologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan DREM modelining bo‘lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarda empatik munosabatlarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda samarali muloqot, o'quvchi shaxsini tushunish va insonparvar yondashuvni ta'minlash empatiya darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonni deontologik yondashuv asosida tashkil etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida deontologik yondashuvning nazariy asoslari hamda empatik munosabatlar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinib, ularning pedagogik jarayondagi ahamiyati asoslab berildi. Deontologik yondashuv bo'lajak pedagoglarda kasbiy burch, axloqiy mas'uliyat, hurmat, sabr-toqat va insonparvarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantirish orqali empatik xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Amaliy tajriba-sinov ishlari natijalari esa nazariy xulosalarni tasdiqladi. Xususan, Al-Fraganus universitetida 97 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan tajribada "Deontologik-refleksiv empatiya rivojlantirish (DREM) modeli" qo'llanilishi natijasida tajriba guruhida empatik munosabatlar darajasi 13,5 foizga oshgani kuzatildi. Bu natija deontologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining an'anaviy yondashuvga nisbatan ancha samarali ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari empatik munosabatlarning ayniqsa affektiv va xulqiy komponentlari rivojlanishida refleksiv faoliyat, rolli o'yinlar va muammoli pedagogik vaziyatlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy kasbiy xulq-atvorini ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, deontologik yondashuv asosida empatik munosabatlarni shakllantirish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida mazkur yondashuvga asoslangan metodik tizimlarni keng joriy etish, refleksiv va interfaol mashg'ulotlar ulushini oshirish hamda kasbiy etika va empatiyani integratsiyalashgan holda o'qitish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rogers C. R. A Way of Being. – Boston: Houghton Mifflin, 1980. – 395 p.
2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
3. Noddings N. Caring: A Relational Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 1984. – 216 p.
4. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.: Logos, 2004. – 384 s.
5. Sukhomlinsky V. A. Serdtse otdayu detyam. – Kiev: Rad. shkola, 1977. – 382 s.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
7. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 256 b.